



## NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



### NAVOIY VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi  
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi  
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.


Jumladan, 2023-yil 1-noyabr holatiga viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 22 272 tani tashkil etdi (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 19 934 ta). O‘tgan yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 89,9 foizni (jumladan, kichik korxonalar va mikrofirmalar 88,8 foiz) tashkil etdi.

## Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar

*fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1-noyabr holatiga ko‘ra, birlikda.*

### Faoliyat ko‘rsatayotgan


### Ro‘yxatdan o‘tgan




## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2023- yil yanvar-oktabr holatiga ko‘ra, birlikda




Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023- yil yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda savdo (100 taga), yashash va ovqatlanish (44 taga) oshganligini ko‘rish mumkin.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar 44 taga ko‘paygan.

## Hududlar kesimida


Navoiy sh.	610	12,3 %	Zarafshon sh.	236	15,4 %
Karmana t.	528	16,1 %	Nurota t.	204	13,2 %
Qiziltepa t.	384	12,9 %	Konimex t.	199	19,5 %
Xatirchi t.	375	14,3 %	Tomdi t.	148	21,8 %
Navbahor t.	359	15,5 %	G‘ozg‘on sh.	85	20,0 %
Uchquduq t.	249	26,7 %			

2023-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda

## Yillar kesimida soni



## Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar



2023-yil 1-noyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2020-yilning mos davriga nisbatan quyidagi sohalarida korxonalar sonining sezilarli o'sishi bilan ifodalash mumkin: tashish va saqlashda 617 tadan 773 taga (o'sish 156 ta), savdoda 6 534 tadan 8 215 taga (o'sish 1 681 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 2 257 tadan 2 517 taga (o'sish 260 ta).

## Hududlar kesimida


Navoiy sh.	4 943	Nurota t.	1 547
Karmana t.	3 281	Konimex t.	1 018
Qiziltepa t.	2 970	Uchquduq t.	931
Xatirchi t.	2 625	Tomdi t.	680
Navbahor t.	2 319	G'ozg'on sh.	426
Zarafshon sh.	1 532		

2023- yil yanvar-oktabr holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)


## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat



Qurilish




Savdo





Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2023-yil yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 3 287 ta bo'lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 3 274 ta;
- yirik korxonalar 13 tani tashkil etdi.

## Hududlar kesimida


Navoiy sh.	567	13,1 %
Karmana t.	514	17,0 %
Qiziltepa t.	377	13,8 %
Xatirchi t.	371	15,9 %
Navbahor t.	356	16,6 %
Zarafshon sh.	234	16,6 %

Uchquduq t.	245	30,1 %
Nurota t.	198	14,5 %
Konimex t.	195	22,0 %
Tomdi t.	145	24,3 %
G'ozg'on sh.	85	21,6 %




2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda

## Yillar kesimida soni



## Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar


Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2023- yil 1- noyabr holatiga 20 033 taga yetib, 2019- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 140,9 foizni tashkil etdi (14 221 ta). Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 41,0 foiz, sanoat – 15,8 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 12,4 foiz, qurilish – 7,1 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 6,4 foiz, tashish va saqlash – 3,8 foiz, axborot va aloqa – 1,3 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 1,5 foiz, boshqa turlari – 10,5 foiz.

## Hududlar kesimida


Navoiy sh.	4 341	Nurota t.	1 361
Karmana t.	3 026	Konimex t.	887
Qiziltepa t.	2 733	Uchquduq t.	813
Xatirchi t.	2 333	Tomdi t.	597
Navbahor t.	2 142	G'ozg'on sh.	394
Zarafshon sh.	1 406		

2023- yil yanvar-oktabr holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.


Shunda, 2023- yil yanvar-oktabr oylarida savdo sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2022-yilning mos davriga nisbatan 1 114 tadan 1 212 taga (o'sish 98 taga), yashash va ovqatlanish - 218 tadan 262 taga (o'sish 44 taga), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish - 33 tadan 45 taga (o'sish 12 taga) ko'paydi.

## Hududlar kesimida


Navoiy sh.	567	13,2 %	Uchquduq t.	243	30,0 %
Karmana t.	511	17,0 %	Nurota t.	198	14,6 %
Qiziltepa t.	377	13,8 %	Konimex t.	195	22,2 %
Xatirchi t.	367	15,8 %	Tomdi t.	144	24,2 %
Navbahor t.	356	16,7 %	G'ozg'on sh.	84	21,4 %
Zarafshon sh.	232	16,6 %			

2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda

## Yillar kesimida soni



## Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Navoiy shahrida (21,6 foiz), Karmana (15,1 foiz), Qiziltepa (13,7 foiz), Xatirchi (11,7 foiz) va Navbahor (10,7 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.

## Hududlar kesimida


Navoiy sh.	4 311	Nurota t.	1 356
Karmana t.	3 009	Konimex t.	878
Qiziltepa t.	2 727	Uchquduq t.	809
Xatirchi t.	2 325	Tomdi t.	595
Navbahor t.	2 137	G'ozg'on sh.	392
Zarafshon sh.	1 395		



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat  
ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar  
2023-yil 1-noyabr holatiga ko‘ra, birlikda

### Hududlar kesimida


Navoiy sh.	223
Zarafshon sh.	37
G‘ozg‘on sh.	16
Konimex t.	334
Qiziltepa t.	285
Navbahor t.	326
Karmana t.	370
Nurota t.	363
Tomdi t.	200
Uchquduq t.	61
Xatirchi t.	302



O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta’minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.


### Baliq ovlash va akvakultura



2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda


**Hududlar kesimida**

Navoiy sh.	647
Zarafshon sh.	277
G'ozg'on sh.	227
Konimex t.	91
Qiziltepa t.	331
Navbahor t.	266
Karmana t.	481
Nurota t.	257
Tomdi t.	91
Uchquduq t.	156
Xatirchi t.	351



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So'nggi uch yil ichida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari sonining o'sish sur'ati 86,1 foizni tashkil etdi.


Sanoat korxonalari soni jami korxonalar va tashkilotlarning 14,3 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 90,4 foizini ishlab chiqarish sanoati (2020 yilning mos davriga nisbatan 94,7 foizni tashkil etdi), 7,1 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o'sish 129,1 foizni tashkil etdi), 2,1 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (o'sish 169,2 foizni tashkil etdi) va 0,4 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (o'sish 140,0 foizni tashkil etdi) tashki etgan.



2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Navoiy sh.	420
Zarafshon sh.	120
G'ozg'on sh.	13
Konimex t.	34
Qiziltepa t.	217
Navbahor t.	135
Karmana t.	233
Nurota t.	100
Tomdi t.	34
Uchquduq t.	34
Xatirchi t.	86



O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 54,0 foiz ulushni tashkil etib, 2020 yilning mos davriga nisbatan o'sish 101,3 foizni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 13,3 foiz ulushni tashkil etib, 2020 yilning mos davriga nisbatan o'sish 173,4 foizni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 32,7 foiz ulushni tashkil etdi.

189


Fuqarolik  
obyektlarini qurish

467

Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

770


Bino va  
inshootlar qurish



2023-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Navoiy sh.	1 795
Zarafshon sh.	474
G'ozg'on sh.	76
Konimex t.	227
Qiziltepa t.	1 343
Navbahor t.	1 114
Karmana t.	1 209
Nurota t.	348
Tomdi t.	200
Uchquduq t.	338
Xatirchi t.	1 091



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,8 foizi yoki 8 196 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 72,3 foiz ulushni tashkil etib, 2020 yilning mos davriga nisbatan o'sish 120,5 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 19,0 foiz ulushni tashkil etib, 2020 yilning mos davriga nisbatan o'sish 143,4 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 8,8 foiz ulushni tashkil etib, 2020 yilning mos davriga nisbatan o'sish 138,3 foizni tashkil etdi.

719

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

1 557

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


5 939

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda

**Hududlar kesimida**

Navoiy sh.	283
Zarafshon sh.	194
G'ozg'on sh.	5
Konimex t.	39
Qiziltepa t.	169
Navbahor t.	75
Karmana t.	194
Nurota t.	56
Tomdi t.	23
Uchquduq t.	95
Xatirchi t.	159



2023- yil 1-noyabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'sish sur'ati 2019- yilning mos davriga nisbatan 111,3 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgo'ahlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2023- yil 1-noyabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 11,1 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 88,9 foiz ulushini tashkil etdi.

143

Yashash bo'yicha xizmatlar



1 149

Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar






2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida


Navoiy sh.	85
Zarafshon sh.	19
G'ozg'on sh.	6
Konimex t.	8
Qiziltepa t.	33
Navbahor t.	16
Karmana t.	43
Nurota t.	9
Tomdi t.	2
Uchquduq t.	11
Xatirchi t.	42



2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 15,3 foizini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish 131,3 foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 36,9 foizini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish 138,4 foizni tashkil etdi.

Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning 47,8 foizini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish 148,9 foizni tashkil etdi.






2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda

**Hududlar kesimida**

Navoiy sh.	144
Zarafshon sh.	37
G'ozg'on sh.	3
Konimex t.	6
Qiziltepa t.	32
Navbahor t.	19
Karmana t.	46
Nurota t.	10
Tomdi t.	9
Uchquduq t.	14
Xatirchi t.	40



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – 360 ta yoki 1,6 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

91,4 foiz korxonalar sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri kelib, o'sish sur'ati 2020-yilning mos davriga nisbatan o'sish 122,3 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 3,6 foizni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 216,7 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 5,0 foizini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 138,5 foizni tashkil etdi;

18

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

13




329

Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda

**Hududlar kesimida**

Navoiy sh.	219
Zarafshon sh.	45
G'ozg'on sh.	3
Konimex t.	7
Qiziltepa t.	145
Navbahor t.	57
Karmana t.	187
Nurota t.	14
Tomdi t.	11
Uchquduq t.	14
Xatirchi t.	71



2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 3,5 foiz ulushini tashkil etdi.

2020- yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish sur'ati 124,8 foizni tashkil etdi;

ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining o'sish sur'ati 136,6 foizni;


pochta va kuryerlik yo'nalishining o'sish sur'ati 108,3 foizni tashkil etdi.



**Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot**  
2023- yil 1- noyabr holatiga ko‘ra, birlikda

**Tadbirkorlik subyektlari soni**

**Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi**




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.


2023- yil yanvar-oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo




Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash




Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

**Mas'uliyati cheklangan jamiyati** – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


## Hududlar kesimida

Navoiy sh.	451	15,1 %	Nurota t.	154	20,3 %
Qiziltepa t.	350	16,9 %	Konimex t.	94	20,7 %
Karmana t.	353	19,8 %	Zarafshon sh.	102	17,4 %
Uchquduq t.	223	31,5 %	Tomdi t.	45	14,9 %
Navbahor t.	197	20,2 %	G'ozg'on sh.	10	11,1 %
Xatirchi t.	186	21,9 %			

2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan 22 272 ta korxonalar va tashkilotlarining 11 577 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) qo'yidagicha bo'ldi: savdo – 36,5 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 15,4 foiz, sanoat – 14,0 foiz va qurilish – 9,7 foizni tashkil etdi.

### Hududlar kesimida


Navoiy sh.	2 996	Uchquduq t.	709
Qiziltepa t.	2 068	Zarafshon sh.	586
Karmana t.	1 783	Konimex t.	455
Navbahor t.	977	Tomdi t.	303
Xatirchi t.	850	G'ozg'on sh.	90
Nurota t.	760		




2023- yil yanvar-oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni


Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat



Qurilish




Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Boshqa turlar

**Xususiy korxonalar** – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxonalar o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

## Hududlar kesimida


Xatirchi t.	144	15,4 %	Navoiy sh.	48	7,1 %
Zarafshon sh.	113	16,7 %	Karmana t.	38	8,4 %
Navbahor t.	116	20,9 %	Nurota t.	13	4,1 %
Konimex t.	89	35,6 %	Uchquduq t.	9	14,8 %
Tomdi t.	98	39,8 %	Qiziltepa t.	10	2,7 %
G'ozg'on sh.	70	26,1 %			



2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni 4 802 tani tashkil etdi.


Xususiy tadbirkorlik subyektlari o'sish sur'atlarining o'tgan yilga nisbatan ko'payishiga tashish va saqlash sohalari (103,9 foiz), shahar va tumanlar kesimida esa – G'azg'on (133,3 foiz), Tomdi (125,5 foiz) shahar va tumani ta'sir ko'rsatmoqda.

## Hududlar kesimida


Xatirchi t.	935	Nurota t.	319
Navoiy sh.	679	G'ozg'on sh.	268
Zarafshon sh.	676	Konimex t.	250
Navbahor t.	554	Tomdi t.	246
Karmana t.	450	Uchquduq t.	61
Qiziltepa t.	364		

2023- yil yanvar-oktabr holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)


## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat




Qurilish




Savdo





Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Boshqa turlar

**Oilaviy korxon** – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxon ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxon ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxon faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.


## Hududlar kesimida

Karmana t.	122	15,6 %	Konimex t.	12	7,1 %
Navoiy sh.	68	11,0 %	Uchquduq t.	13	34,2 %
Navbahor t.	43	7,1 %	Zarafshon sh.	19	13,7 %
Xatirchi t.	41	7,9 %	G'ozg'on sh.	5	14,7 %
Nurota t.	29	11,2 %	Tomdi t.	2	4,8 %
Qiziltepa t.	16	5,5 %			

2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra 2019- yilning mos davriga nisbatan 838 taga ko'paygan.

## Hududlar kesimida


Karmana t.	781	Konimex t.	169
Navoiy sh.	620	Zarafshon.	139
Navbahor t.	602	Tomdi t.	42
Xatirchi t.	521	Uchquduq t.	38
Qiziltepa t.	292	G'ozg'on sh.	34
Nurota t.	258		

## Yangi tashkil etilgan chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot


2023- yil yanvar-oktabr holatiga ko‘ra, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)


Yillar kesimida soni



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik  
xo‘jaligi



Sanoat




Savdo



Tashish va saqlash



Sog‘liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



Boshqa turlar

**Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar** – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin.


### Hududlar kesimida

Navoiy sh.	13	24,5 %	Xatirchi t.	2	18,2 %
Karmana t.	6	10,2 %	Konimex t.	1	11,1 %
Nurota t.	3	25,0 %	Uchquduq t.	1	20,0 %
G‘ozg‘on sh.	2	40,0 %	Navbahor t.	1	12,5 %
			Zarafshon sh.	1	7,7 %

2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Keyingi besh yilda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2.0 barobarga oshdi.

Yetakchi o'rinni 42 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi egallagan. Bu respublikada chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 21,4 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya Federatsiyasi (ulushi 14,8 foiz), Eron Islom (9,7 foiz), Turkiya (ulushi 7,7 foiz), Janubiy Koreya (ulushi 5,6 foiz) va Qozog'iston (ulushi 4,1 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

## Hududlar kesimida

Karmana t.	59	Xatirchi t.	11
Navoiy sh.	53	Navbahor t.	8
Nurota t.	12	Tomdi t.	8
Qiziltepa t.	13	Uchquduq t.	5
Zarafshon sh.	13	G'ozg'on sh.	5
Konimex t.	9		

*2023- yil yanvar-oktabr holatiga ko'ra, birlikda*

O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratish bo'yicha keng qamrovli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning strategik geografik joylashuvi, boy va xilma-xil tabiiy resurslari o'sish uchun ulkan imkoniyatlarni namoyon etadi. O'zbekiston hukumati o'z fuqarolarining farovonligini oshirish, biznesni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish maqsadida, chet el investitsiyalarini ko'paytirishga ustuvor ahamiyat bermoqda.



2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 99 tasi qo'shma korxonalar, 100 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

*2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda***xorijiy korxonalar****qo'shma korxonalar**

<b>19</b>	Navoiy shahri	<b>34</b>
<b>7</b>	Zarafshon shahri	<b>6</b>
<b>2</b>	G'ozg'on shahri	<b>3</b>
<b>4</b>	Konimex tumani	<b>5</b>
<b>6</b>	Qiziltepa tumani	<b>7</b>
<b>5</b>	Navbahor tumani	<b>3</b>
<b>37</b>	Karmana tumani	<b>22</b>
<b>6</b>	Nurota tumani	<b>6</b>
<b>2</b>	Tomdi tumani	<b>6</b>
<b>3</b>	Uchquduq tumani	<b>2</b>
<b>8</b>	Xatirchi tumani	<b>3</b>

2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi** – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



## **Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri**

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, soʻralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qoʻyilgan.



Statistik registrlarni yuritish  
va tizimli xizmat  
koʻrsatish boʻlimi  
Tel.: 79.223.42.67